

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**HAMRAQULOVA GULUZRA DILMURADOVNA**

**BADIIY MATNNING FONOPOETIK TADQIQI  
(Iqbol Mirzo she'riy asarlari tahlili misolida)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Hamraqulova Guluzra Dilmuradovna**

Badiiy matnning fonopoetik tadqiqi (Iqbol Mirzo she’riy asarlari tahlili misolida) ..... 3

**Хамракулова Гулузра Дилмурадовна**

Фонопоэтическое исследование художественного текста (на примере анализа поэтического творчества Икбола Мирзо) ..... 25

**Hamrakulova Guluzra Dilmuradovna**

Phonopoetic study of literary text (based on the example of analysis of the poetic creativity of Iqbol Mirzo)..... 49

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 52

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**HAMRAQULOVA GULUZRA DILMURADOVNA**

**BADIIY MATNNING FONOPOETIK TADQIQI  
(Iqbol Mirzo she'riy asarlari tahlili misolida)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3312 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nabiyeva Dilara Abduhamidovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Akbarova Zuhra Akmaljonovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yo‘ldoshev Ma’rufjon Muhammadjonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.Sh.Sobirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, f.f.d., professor

**F.F. Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.f.f.d., dotsent

**D.A.Nurmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
f.f.d., dotsent

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3312 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nabiyeva Dilora Abduhamidovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Akbarova Zuhra Akmaljonovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Ma'rufjon Muhammadjonovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "6" aprel soat 12 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (183 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "18" mart kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ daqiqa \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



A. Sh. Sobirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

F.F. Usmanov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.f.d., dotsent

D.A. Nurmanova  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., dotsent

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek tilshunosligida fonostilistika va fonopoetikaning umumiy va o‘ziga xos muammolarini o‘rganishga doir birmuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bularga A.A.Abduazizov, E.R.Qilichev, M.Jusupov, O.K.Saparova, A.A.Haydarov, M.M.Yo‘ldoshev, G.T.Yaxshiyeva, N.M.Qambarov, O.A.Tursunova va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin<sup>2</sup>. Mazkur nazariy manbalarga tayangan holda badiiy matnning fonopoetik xususiyatlarini, fonetik va prosodik vositalarni monografik planda o‘rganish leksik-semantik, grammatik vositalar, qatorida, tovushlarning jilolanishi, urg‘u, ohang, to‘xtam kabi fonetik birliklarning tahlili va tadqiqi bugungi o‘zbek tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biridir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Tilshunoslik va lingvodidaktikaning dolzarb muammolari” mavzusidagi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Iqbol Mirzo asarlarida badiiy matnning fonopoetik xususiyatlari, fonetik va prosodik vositalarning she’riy matndagi o‘rni va roli, tovushlarning jilolanishi, urg‘u, ohang, to‘xtam kabi prosodik birliklarni aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

lingvopoetik tizimda fonopoetikaning o‘rnini belgilash hamda uning muammolarini tadqiq qilish metodologiyasi va metodlarini aniqlash;

fonetik birliklarning poetik imkoniyatlari hamda ularning voqelanishini ta’minlovchi omillarni tavsiflash;

---

<sup>2</sup> Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 104; Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. – Ташкент: Фан, 1991. – С 120; Камбаров Н.М. Фоносемантические средства английского языка и их соответствия в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1990. – С 149; Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 136; Йулдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б; Яхшиева Г.Т. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Фил. фан. ном. ... дисс. – Т., 1997. – 40 с. Сапарова К.О. Фоностилистика русского и узбекского языков. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 273 с.; Сапарова К.О. Сопоставительно-типологическое исследование фоностилистики русского и узбекского языков (на материале фоновариантов слов): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Тошкент: УзГУМЯ, 2009; Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. – Самарканд: СамДУ, 2016. – 16 б; Турсунова О.А. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Фил. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 52 б.

Iqbol Mirzo she'riy asarlarida poetik maqsadda qo'llanilgan segment birliklarni aniqlash hamda undoshlarning badiiy-estetik funksiyalarini tavsiflash:

Iqbol Mirzo asarlari matnida unilarning poetik funksiyasini yoritish;  
poetik matnda prosodik vositalarning emotsional-ekspressiv vazifalarni aniqlash.

**Tadqiqotning obyektini** o'zida badiiy-estetik yuk tashuvchi fonetik birliklar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Iqbol Mirzo asarlarida qo'llanilgan fonetik birliklar va prosodik vositalarning poetik imkoniyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, fonosemantik, fonopoetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kognitiv faoliyat natijasi sifatidagi poetik matnni tahlil qilishning germenevtik va lingvopoetik maqsadlarga javob beruvchi uch bosqichli – metametasemiotik bosqichi, badiiy priyom lingvopoetikasi hamda lingvopoetik sathlashtirish metodlari yetakchilik qilishi dalillangan;

poetik matnda fonetik birliklarning, xususan, unli va undoshlarning alliteratsiya, assonans ko'rinishidagi badiiy-estetik funksiyalari Iqbol Mirzo she'rlari misolida ochib berilgan;

she'riy nutqda bo'g'in va urg'uning poetik o'rni va stilistik ahamiyati, tavgogramma va lipogrammaning emotsional-ekspressiv potentsiallari aniqlanib, Iqbol Mirzo she'riyatida sintaktik epifora poetik individuallikni ta'minlashi dalillangan;

Iqbol Mirzo she'rlarida intonatsiya va uning tarkibiy elementlari bo'lgan urg'u va to'xtam ham ijodkorning badiiy intensiyasini yuzaga chiqarishda individuallikni ko'rsatuvchi muhim prosodik vositalarga aylanishi, matnning pragmatik mazmunini shakllantirishi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek tilida she'riy matnlarning lingvokognitiv va lingvopoetik o'ziga xos xususiyatlarining tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi va "Tilshunoslik", "Leksikologiya", "Uslubiyat" kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukamallashuviga yordam berishi asoslangan;

Iqbol Mirzo she'riyati tahlili orqali o'zbek tili prosodik vositalarining poetik ko'lami aniqlanib, bu jarayonda inson faktorining muhimligi antroposentrik yo'nalishdagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi dalillangan;

she'riy matnlarning interpretatsiyasida intonatsion hodisalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari tahlili amalga oshirilgan;

o'zbek tilida she'riy matnlarning fonopoetik xususiyatlarini o'rganishda fonopoetikaga oid asosiy tushunchalarning tahlili lingvokulturologik tadqiqotlarda foydalanilishda ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, tasniflash, adabiy-tarixiy va kompleks tahlil kabi usullar yordamida asoslanganligi, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda

xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, taklif va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Iqbol Mirzo asarlari lingvistik metodlar tatbiqida lingvokognitiv va lingvokulturologik aspektda tahlil qilinib, she'riyatda fonetik takrorlarning, fonetik taqlidlarning komponent tarkibi aniqlanganligi, fonopoetikaga oid asosiy tushunchalarni tahlil qilish tasniflashning muhim bir bosqichi ekanligi asoslanganligi, shuningdek, she'riy matnlarning fonopoetik xususiyatlarini o'rganish til birliklarining semantikasini aniqlash, ularni lingvistik tadqiq etish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Iqbol Mirzo she'riyati misolida amalga oshirilgan lingvopoetik tahlillardan "Terminologiya", "Lingvopoetika" kabi fanlaridan darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borishda, "Lingvistika", "O'zbek tili va adabiyoti" magistratura mutaxassialiklarida maxsus kurslarni tashkil etishda manba sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** badiiy matnning fonopetik tadqiq etish bo'yicha erishilgan ilmiy xulosalaridan:

kognitiv faoliyat natijasi sifatidagi poetik matnni tahlil qilishning germenevtik va lingvopoetik maqsadlarga javob beruvchi uch bosqichli – metametasemiotik bosqichi, badiiy priyom lingvopoetikasi hamda lingvopoetik sathlashtirish metodlari yetakchilik qilishi xususidagi nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-F3201908172. "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 11-oktabrdagi 01/10-2081-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihada aks etgan fonopoetikaning lingvopoetik tadqiqotlar tizimidagi o'rnini o'rganishga oid tavsiyalar takomillashtirilgan;

poetik matnda fonetik birliklarning, xususan, unli va undoshlarning alliteratsiya, assonans ko'rinishidagi badiiy-estetik funksiyalariga doir tahlillar va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-II32020042022. "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi loyihasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 11-oktabrdagi 01/10-2082 son ma'lumotnomasi). Natijada boshqa turkiy tillar kabi o'zbek tilida ham badiiy matnda fonetik birliklarning poetik imkoniyatlarini yuzaga chiqish hodisasini amaliy jihatdan kuzatish imkoniyati paydo bo'lgan;

she'riy nutqda bo'g'in va urg'uning poetik o'rni va stilistik ahamiyati, tavgogramma va lipogrammaning emotsional-ekspressiv potentsiallari aniqlanib, Iqbol Mirzo she'riyatida sintaktik epifora poetik individuallikni ta'minlashi xususidagi ilmiy xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi

“O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Bedorlik” dasturlari ssenariylarini (2022-2023-yillar) tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 15-dekabrda 04-36-1909-son ma’lumotnomasi). Natijada radioeshittirishlarning ssenariysi mazmunan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida ilmiy ma’ruzalar ko‘rinishida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fonopoetika muammolarini tadqiq qilishning metodologik asoslari va metodlari”** deb nomlangan birinchi bobi uch faslga ajratilgan bo‘lib, birinchi faslida **“Fonopoetikaning lingvopoetik tadqiqotlar tizimidagi o‘rni”** o‘rganiladi. Tilshunoslikda lingvopoetikaning tarixiy ildizlari ancha qadimiydir. Tadqiqotchilarning ayrimlari lingvopoetikaning ildizini Arastuga bog‘laydilar hamda o‘zlarining fikrlarini “Poetika” orqali dalillaydilar. Bizning fikrimizcha, ushbu fikr ko‘proq atama nuqtayi nazaridan to‘g‘ri, zero insoniyat paydo bo‘lgandan buyon til va adabiyot uyg‘unlikda yashaydi. Ibtidoiy odamlarning tasviriy san’atga, musiqaga bo‘lgan dastlabki bilimlari ham lingvopoetik olamning hamisha mavjudligining dalilidir. Umri davomida ijod qilib she’r yozmagan ayol ham ilk ona bo‘lgan lahzasidanoq alla to‘qiydi. Dilbandiga bo‘lgan mehrini sehri so‘z – alla orqali ifodalaydi. Umrining asosiy qismini janglarda o‘tkazgan Biga xoqon, Tunyuquqlar-chi? Nega ular so‘zga bunchalar usta bo‘lishgan?! Sababi, lingvopoetika har qanday lisoni bor shaxsda mavjud bo‘lgan va ma’lum tabaqa, soha bilan chegaralanmaydigan tilshunoslikning muhim yo‘nalishidir.

Lingvopoetika tadqiq xususiyatiga ko‘ra fanlararo yo‘nalish bo‘lib, u o‘zi qatori tutash fanlarning tushuncha va kategoriyalariga mos tushmaydigan o‘ziga xos tushunchaviy apparatiga ega. Shu tushunchaviy apparati lingvopoetikani adabiyotshunoslikdan va uslubiyatdan farqlab turadi.

Lingvopoetikaning adabiyotshunoslikdan farqi shundaki, adabiyotshunoslikda asosiy e‘tibor badiiy asarning mazmuniy va kompozitsion tuzilishiga qaratilgani holda, uning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish yetakchi hisoblanmaydi. Lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy asarning mazmuniy va kompozitsion xususiyatlarini inobatga olgan holda lisoniy qonuniyatlar asosida ish ko‘riladi.

Lingvopoetik tadqiqotlarning ahamiyati uslubiy markerlangan birliklarning qo‘llanilish ko‘lami bilangina emas, balki ularning qo‘llanilish sifati bilan ham belgilanadi. Shuning uchun mazmunan boy, lisoniy jihatdan murakkab bo‘lgan badiiy asarlar lingvopoetik tadqiqotlar uchun manba bo‘ladi.

Tilning an‘anaviy va sistem-struktur tilshunoslikni o‘rganish obyekt sifatidagi vazifasidan tashqari yana bir vazifasi ham borki, bu lingvopoetikani o‘rganish obyekt ekanligidir. Lingvistik poetika tilshunoslikning alohida bo‘limi hisoblanib, tilning ta‘sir etish, badiiy estetik va konnotativ funksiyalarini ham o‘z ichiga oladi. Badiiy adabiyotning asosiy vositasi badiiy nutq hisoblanadi. Adabiyotning tasviriy vositasi so‘z sanaladi. Badiiy so‘z adabiyotning muhim qurolidir.

Fonetik birliklarning uslubiy xoslanishi ham ularning poetik imkoniyatlarining voqelanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Og‘zaki so‘zlashuv uslubida tovushlar ustsegment birliklar – urg‘u va intonatsiyaning qo‘shilishi hisobiga betakror jiloga ega bo‘ladi. Bunday jilolanishni yozma nutq orqali yetkazib berish mushkul. “Chunki unda nutq tovushlarining ayrim jihatlarinigina ifodalash mumkin, xolos. Tovushlar tovlanishi badiiy asarlarda ma‘lum bir uslubiy vazifa bajarib, matnning emotsional ekspressivligini ta‘minlashda, ta‘sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. ...Shoir she‘riy matnda o‘z tasavvuridagi kechinmalarini nutqiy jarayonda rang-barang usulda she‘riy ohangdoshlik, ritm, qofiyadoshlik asosida tovush va tovushlar birikmasi orqali ifoda etadi va yuqori darajadagi hissiy ta‘sirchanlikka erishadi. Nasrda bu hodisa nazmga nisbatan kam hollarda ko‘zga tashlanadi”<sup>3</sup>. Ko‘rinadiki, tovushlarning poetik imkoniyatlari voqelanishi ularning uslubiy xoslanishi bilangina emas, balki poetik matnning janr xususiyatlari hamda ijodkorning lisoniy kompetensiyasi bilan ham bog‘liqdir, chunki “Ko‘pchilik shoirlar ham o‘z fikr-mulohazalarini boshqalarda qanoat hosil bo‘ladigan darajada ifodalash qobiliyatiga ega bo‘ladilar”<sup>4</sup>.

Bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, lingvopoetika butunlik sifatida ichki struktur elementlardan: fonetik poetika, leksik poetika, morfopoetika va sintaktik poetikaning yaxlitligidan iborat bo‘lib, ushbu poetikalarning alohida tizimli tadqiqi umumiy lingvopoetikaning mohiyatini tushunishga zamin yaratadi.

<sup>3</sup> Kabuljonova G. She‘riy matnda unli tovushlar orqali ma‘noning ifodalanishi. // O‘zMU xabarлари. URL: <https://journalsnuu.uz/index.php/1/issue/download/69/306>: – B. 170. (murojaat sanasi: 21.06.2022.)

<sup>4</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1993. – Б. 112.

**“Lingvopoetik tadqiq metodlari”** faslida til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi, uni avloddan avlodga yetkazuvchi belgilar sistemasi bo‘libgina qolmay, tinglovchiga ta’sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning tinglovchiga ta’sir qiluvchi funksiyasi uni adabiyot bilan bog‘laydi va shu funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyekti ekanligi ko‘rib chiqiladi.

Matnning lingvopoetik tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi olimlarning fikrlarini jamlagan holda lingvopoetikaning tadqiq metodlarini quyidagicha ajratish mumkin:

**a)** uch bosqichli tahlil; **b)** badiiy priyom lingvopoetikasi tadqiqi; **c)** lingvopoetik stratifikatsiya; **d)** lingvopoetik qiyoslash.

Uch bosqichli tahlil metodi matnning lingvistik tahlili uchun ishlab chiqilgan dastlabki metod bo‘lib, unda matn tadqiqotchi ko‘z o‘ngida badiiy priyomlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi hamda matnda qo‘llanilgan uslubiy markerlangan barcha lisoniy birliklarning xususiyatlarini tahlil etish imkoniyati tug‘iladi<sup>5</sup>.

Lingvopoetik sathlashtirish metodi mazmuniy-stilistik qatlamlarga ajratish mumkin bo‘lgan matnlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda tadqiqotchi mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan umuman matndan xususiyga – yaxlitlikni ta’minlovchi vositalarga, uslubiy markerlangan lisoniy birliklarga qarab harakatlanadi.

Lingvopoetik qiyoslash metodi tematik va funksional-ulubiy o‘xshashlikka ega bo‘lgan matnlarni tadqiq qilish uchun hamda “ikkilamchi matnlar”ni, parodiya va tarjimalarni aslyat bilan solishtirish uchun qo‘llaniladi. Ushbu metodning sifatlari A.Lipgart tadqiqotlarida batafsil yoritib berilgan.

O‘zbek tilshunosligida M.Yo‘ldoshev “Badiiy matnning o‘zi benihoya murakkab va uni o‘quvchi, idrok etuvchilar tomonidan to‘lig‘icha bir xil talqin etilishi mumkin bo‘lmagan (zarur ham bo‘lmagan) hodisa bo‘lganligi uchun ham uni lingvopoetik tadqiq etishning aniq bir modeli yaratilgan emas”<sup>6</sup>ligini ta’kidlagan holda, badiiy matnni tahlil qilishning bir nechta tamoyillarini tavsiya etadi<sup>7</sup>.

M.Yo‘ldoshev tavsiya etgan usul va tamoyillarning barchasi badiiy asarning lingvistik tahlili uchun, tanlangan materialning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uning badiiy-g‘oyaviy mohiyatini ochish uchun zarur va muhimdir. Ilmiy metodning tanlanishi tadqiqot obyekti va maqsadi bilan bog‘liqdir. Chunki “bizni qurshab turgan olamdagi har bir hodisa nihoyatda ko‘p qirrali tabiatga ega. Bundan til hodisasi ham mustasno emas. Shuning uchun bunday ko‘p qirrali hodisaning har qaysi qirrasini o‘rganish alohida metodni, alohida yondashuvni talab qiladi”<sup>8</sup>. E’tirof etish lozimki, V.A.Serebrennikov qayd etganidek, til kabi ko‘p qirrali hodisani o‘rganish va uning har bir qirrasini yoritishda xilma-xil metodlarni birgalikda qo‘llash yaxshi samara beradi. Badiiy asar tahlilida ham ular bir-birini

<sup>5</sup> <https://infourok.ru/metodi-lingvopoeticheskogo-analiza-teksta-2138009.html>. (murojaat sanasi: 29.08.2023.)

<sup>6</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 148.

<sup>7</sup> Йўлдошев М.Ко‘rsatilgan manba. – Б. 148.

<sup>8</sup> Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademyashr, 2010. – B. 37.

to'ldiradi. Tadqiq materialidan kelib chiqib ulardan biri yetakchilik qiladi. Xususan, badiiy matnda badiiy-estetik funksiya bajarishda fonetik birliklarning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan fonopoetik tadqiqotlarda uch bosqichli tahlil metodining metametasemiotik bosqichi, badiiy priyom lingvopoetikasi hamda lingvopoetik sathlashtirish metodlari yetakchilik qilishini e'tirof etish mumkin.

Bobning uchinchi fasli **“O‘zbek tilidagi fonopoetik vositalar va ularni tasniflash masalasi”** deb nomlanadi. Ma'lumki, til tizimini tashkil etuvchi struktur elementlarning har biri shu sistema tarkibida muayyan o'xshash belgilari asosida o'zi mansub qatordagi boshqa birliklar bilan umumiylikni hosil qilsa-da, o'ziga xos funksiyalashish xususiyatiga ko'ra umumiy qatordan farq qiladi. Tilning fonetik strukturasi tashkil etuvchi birliklari ham, ularning segment yoki ustsegmentligidan qat'iy nazar, nutq jarayonida so'zlovchining intensiyasini yuzaga chiqaruvchi vositaga aylanishi mumkin. Shu bilan birga adib qo'lida fonetik vositalarning poetik imkoniyatlari ham o'ziga xos tarzda voqelantirilishi mumkin. Poetik matndagi adib intensiyasini yuzaga chiqarishda barcha fonetik birliklar, xususan, unli va undoshlar, ularning turli xil kombinatsiyalari, ohang, urg'u, to'xtam kabi segment va ustsegment birliklar o'ziga xos vazifa bajaradi.

Tovushlarning semantik xususiyatlari bilan bir qatorda, matnning fonostilistik markerlanganlik masalasi ham zamonaviy tilshunoslikning kun tartibida mustahkam o'rin olgan masalalardan biridir. Buning sababi barcha lisoniy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazuvchi ommaviy kommunikatsiya vositalarining tezkor rivojlanishi bilan izohlanmoqda. Shuning uchun fonostilistika ham alohida tadqiq yo'nalishiga aylanib, fonetik hodisalar va jarayonlarning stilistik xususiyatlarini muloqot aktining umumiy ekstralingvistik manzarasini hosil qiluvchi omillarini hisobga olgan holda o'rganish uning predmetini tashkil etmoqda. Chunki nutq muloqot vaziyati, kommunikantlarning niyati hamda ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Shu nuqtayi nazardan, muayyan ekstralingvistik vaziyatda voqelanadigan uslubiy markerlangan segment va ustsegment birliklar yig'indisi fonetik uslubni tashkil etadi.

O.Tursunova badiiy nutqning barcha turlarida ohang uslubiy vazifa bajarishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, “poetik nutq xususiyatlaridan ayrim jihatlarini ochib beruvchi, uning obrazli tarzda namoyon bo'lishini belgilovchi va, albatta, so'zlovchining muayyan ma'nodagi munosabatini aks ettiruvchi vositalardan biri ohangdir. Tovush tempi, tembri, gapirish manerasi, so'zlarni talaffuz etish usullari, ovozning nutq tovushi doirasida va muayyan vaqt birligi davomida tovlanishi sifatida baholanayotgan intonatsiya so'zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga bo'lgan ma'lum bir munosabati (murojaat, xitob, kinoya, gina, achinish, shodlanish, taajjub, g'azab)ni anglatuvchi

ifodaviylikning asosiy vositasidir. Bu xususiyat poetik fikrni tinglovchiga, serjilo hamda ta'sirchan yetib borishiga xizmat qiladi"<sup>9</sup>. Masalan:

*Otang sochidagi oqlar-gunohing.*

*Onangdek sarg'aygan bog'lar gunohing.*

*Shaharga mahkamroq bog'lar gunohing,*

*Ketolmaysan, ketolmaysan-a...*<sup>10</sup> ("Arosat", 11-bet.)

Intonatsiya tilning supersegment birligi bo'lib, u uni tashkil etuvchi elementlarning barqaror munosabatlaridan tashkil topgan murakkab butunlik hisoblanadi. Intonatsiyaning tarkibiy qismlari ilmiy adabiyotlarda turlicha ko'rsatiladi<sup>11</sup>. D.Nabiyeva ularni umumlashtirgan holda, quyidagicha belgilash mumkinligini qayd etadi: asosiy ovoz tonining pasayib ko'tarilishini nazorat qiluvchi komponent – melodika; jozibali artikulyatsiya tezligining o'zgarishini nazorat qiluvchi nutq tempi; artikulyatsion harakatlar kuchining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ovoz balandligi; nutq jarayonida fonatsiyaning to'xtalishi, ya'ni pauza; urg'u hamda ovoznining o'ziga xos bo'yoqdorligini aks ettiruvchi ovoz tembri<sup>12</sup>. Ta'kidlash lozimki, intonatsiya tarkibidagi komponentlar mavqeyi masalasi ham fonetistlar o'rtasidagi munozaralarga sababdir. Ba'zi tilshunoslar intonatsiyaning asosiy komponenti sifatida melodikani ajratsalar<sup>13</sup>, boshqalari urg'u va pazani ko'rsatadilar<sup>14</sup>. Bu borada prof. D.Nabiyevaning fikrlari e'tiborga loyiq. Uning ta'kidlashicha, "til sistemasida intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar teng qimmatlidir. Lekin bu komponentlarning mavqei nutq jarayonida so'zlovchining emotsional holati, kommunikativ maqsadi, nutq vaziyati va har bir xususiy tilning o'ziga xos jihatlari kabi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin"<sup>15</sup>.

Poetik matnning jumla qurilish xususiyatiga ko'ra boshqa sintaktik birliklar kabi shunchaki sintaktik hodisa emas, balki ritmik-sintaktik hodisa hisoblanishi ham undagi intonatsion davrlashtirish spesifikasi bilan bog'liqdir.

<sup>9</sup> Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларнинг поэтик имкониятлари: Фил. фан. фалс. док. ... (PhD) дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 26.

<sup>10</sup> Мирзо Иқбол. Кўзларингга термулсайдим. – Тошкент: Sharq, 2020. – Б. 248.

<sup>11</sup> Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 1991; Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976; Жинкин Н.И. Взаимоотношения компонентов интонации в речи и в музыке. / Н.И. Жинкин / Предисл. И коммент. С.И. Гиндина // Проблемы структурной лингвистики. – Москва: Наука, 1984. – С. 137-149; Брызгунова Е.А. Основные типы интонационных конструкций и их употребление в русском языке. – Русский язык за рубежом, 1973, №1, №2. Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Высшая школа, 1979.

<sup>12</sup> Набиева Д. Интонациянинг тил тизимидаги ўрни // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Проф. А.Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилаётган регионал семинар материаллари. – Андижон. – 244 б.

<sup>13</sup> Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976; Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Высшая школа, 1979; Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991.

<sup>14</sup> Жинкин Н.И. Взаимоотношения компонентов интонации в речи и в музыке / Н.И. Жинкин / Предисл. И коммент. С.И. Гиндина // Проблемы структурной лингвистики. – Москва: Наука, 1984. – С. 137-149.

<sup>15</sup> Набиева Д. Интонациянинг тил тизимидаги ўрни // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Проф. А.Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилаётган регионал семинар материаллари. – Андижон. – 244 б.

Qayd etish lozimki, fonetik birliklarning poetik imkoniyatlari nafaqat intonatsiya vositasida, balki unli va undosh tovushlarning jumla tarkibidagi kombinatsiyalari, xususan, fonetik takrorlar: assonans, alliteratsiya, anafora; tovushlar simvolizmi (onomatopeya), geminatsiya, unlilarni choʻzish kabi hodisalar yordamida ham amalga oshiriladi. Bular haqida tadqiqotimizning keyingi bobida batafsil maʼlumot beriladi.

Koʻrinadiki, zamoniy tilshunoslikda tilning funksional aspekti dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bunda turli tipdagi matnlarning fonetik tavsifiga alohida eʼtibor qaratilishi lozim. Chunki badiiy matn yaxlitlik, butunlik sifatida qaralar ekan, uni tashkil etuvchi birliklarning hamda ularning funksiyalashuvining alohida tadqiq etilishi murakkab butunlikni toʻlaqonli tavsiflash imkonini beradi. Shu jihatdan olib qaralganda, poetik matn tahlilida matnni tashkil etuvchi har bir elementning, xususan, fonetik birliklarning poetik imkoniyatlarini hisobga olish muhim va zarur.

Ishning **“Sheʼriy nutqda fonetik hodisalarning badiiy-estetik funksiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki fasldan iborat boʻlib, fasllar oʻz navbatida boʻlimlarga ajratilgan. Birinchi faslda **“Fonetik takrorlarning poetik imkoniyatlari”** badiiy nutqda unlilarning takroridan yuzaga kelgan poetik imkoniyatlar ikkiga turga boʻlib oʻrganildi. Dastlab badiiy nutqda **“Alliteratsiya – undoshlarning takrori”**dan yuzaga kelgan xushohanglik tadqiq etiladi. Til oʻzining umumiyliги, ijtimoiyлиги, lingvistik qonuniyatlarga boʻysinishi va mohiyat ekanligi bilan nutqqa zidlanadi. Demak, “til birliklari deganda nutqqa zid qoʻyilgan tilning birliklari tushuniladi. Sistema tarkibida funksional qimmatga ega boʻlgan elementlar til birligi sanaladi”<sup>16</sup>. Til va nutq birliklari haqida prof. A.Nurmonov quyidagilarni yozadi: “Til birliklari tushunchasi bilan birga lingvistik birlik degan tushuncha ham mavjud”<sup>17</sup>. Bu tushuncha til birliklarini ham, nutq birliklarini ham qamrab oladi. Tilning sistemaviylik tabiati shundaki, u sanoqli figuralar, yaʼni birliklarning turli kombinatsiyalari orqali cheksiz axborotlarni uzatish imkoniyatiga ega. Shuning uchun til birliklarining miqdori chegaralangan, barmoq bilan sanarlidir. Imkoniyat tarzidagi bu sanoqli birliklar nutqiy jarayonda xilma-xil shaklda voqealanadi. Til birliklarining nutqiy jarayondagi real koʻrinishlari nutq birliklari sanaladi”<sup>18</sup>.

Koʻrinadiki, nutq ham yaxlit bir sistemadir va u mayda struktural birliklardan tarkib topgan. Ana shu nutqni tashkil qiluvchi mayda struktural birliklar, avvalo, fonetik birliklardir. “Tilning tovush sistemasini turli tomondan oʻrganish mumkin, chunki nutq tovushlari oʻz tabiatiga va til sistemasida bajaradigan vazifasiga koʻra murakkab hodisadir”<sup>19</sup>.

<sup>16</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.108.

<sup>17</sup> Нурмонов А. Коʻrsatilgan манба. – Б. 108.

<sup>18</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 108.

<sup>19</sup> Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов. М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ҳқитувчи, 1981. – Б. 23.

Demak, nutqning murakkabligi shundaki, nutqiy jarayonda til birliklari turlicha voqelanadi, nutq jozibadorligini oshiruvchi turlicha vositalar qo‘llanadi. Ana shunday vositalardan biri fonetik takror hisoblanadi. Muayyan tovushlarning takrori barcha nutq turlarida qo‘llanadi va nutq shaklan qat‘iylashadi, ma‘lum bir me‘yorga solinadi, turli uslubiy vositalar bilan shakllantiriladi. Fonetik takror ma‘lum pozitsiya va ma‘lum maqsadga ko‘ra ishlatiladi, so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi ma‘lum aloqa maqsadini ta‘minlaydi. “Tovush takrori tushunchasi lingvistikaga dastlab O.Brik tomonidan kiritilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan ham qo‘llanadigan bo‘ldi”<sup>20</sup>.

Nutq jozibadorligi ohang, tovushlar ohangdoshligi, tovushlar mosligi, uyg‘unligi, urg‘u va uning turlari, ma‘noga ta‘siri, qofiya, ritm, unlining kuchli talaffuzi, unlining cho‘zish, geminatsiya kabilar orqali yuzaga chiqadi.

So‘z san‘atkori o‘z asarini yaratar ekan, bor imkoniyatlardan leksik, sintaktik va uslubiy vositalardan foydalanib yorqin obrazni yaratishga va kitobxonlarga emotsional ta‘sir qilishga harakat qiladi.

Alliteratsiya hodisasi haqida gapirilganda yana ikki hodisa haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Birinchisi, **tavtogramma**. Tavtogramma badiiy uslub bo‘lib, unda matnda yoki biror qismida hamma so‘zlar bir xil tovush bilan boshlanadi, ko‘pincha bir xil so‘z bilan. Tavtogramma qisqa she‘rlarda yoki katta badiiy matnlarda ham ishlatilishi mumkin. Tavtogrammani alliteratsiyaning bir ko‘rinishi sifatida bilishadi. Masalan:

*Nima qilsam senga alam qilarkin,  
Nima qilsam esing men tomon og‘ar?  
Nima qilsam ko‘zing menga kularkin,  
Nima qilsam senga she‘rlarim yoqar?*<sup>21</sup> (“Nima qilsam...” 20-bet.)

Ikkinchi hodisa, **lipogramma**, tavtogrammaning teskarisi. Lipogramma (qadimgi yunon tilida “harfga e‘tibor bermaslik”) – so‘zlarda bitta harf ishlatmasdan matn yozishdan iborat adabiy qurilma<sup>22</sup>. Lipogramma – badiiy uslub bo‘lib, unda oldindan o‘ylab, ongli ravishda biror tovush tushirib qoldiriladi. Lipogramma biror ma‘no yukidan xoli, shuning uchun oldindan ogohlantirilmagan kitobxon sezmasligi ham mumkin. Lipogrammani asosan, badiiy qobiliyatni o‘stirish va so‘z boyligi ko‘paytirish uchun ishlatiladi.

Iqbol Mirzo ijodini o‘rganish jarayonida ijodkor lipogramma usulidan samarali foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan:

*Yomg‘irlar sochildi, g‘uborlar ketdi  
Senga gul tutolmay bahorlar ketdi.  
Yellar hovuchida uforlar ketdi*

<sup>20</sup> Турсунова О. Ўзбек тилининг бирликларининг поэтик имкониятлари: Фил.фан. бўйича фал. док. ... (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 39.

<sup>21</sup> Мирзо Иқбол. Кўзларингга термулсайдим. – Тошкент: Sharq, 2020. – Б. 20.

<sup>22</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Липограмма>. (murojaat sanasi: 17.08.2023.)

*Shamolcha himmatim bormidi mening?*

*Mendan senga faqat ozorlar yetdi*<sup>23</sup>. (“Ozorlar yetdi”. 34-bet.)

Yuqorida keltirilgan she’r 4 band, 20 misradan iborat bo‘lib, misralar tarkibida “j” undoshi qatnashmagan.

Umuman olganda, takrorning har qanday turi ham emotsional-ekspressiv vazifa bajara oladi, biroq kichik birlik sanalgan tovushlarning takrori o‘zidan yuqori birliklarga nisbatan faol va ta’sirchanligi yuqoridir. Ayniqsa, subyektiv munosabatning ixchamlashgan, sodda, lekin o‘ta kuchli ifodasi fonetik takror orqali yuzaga chiqadi. Tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, alliteratsiyada ma’noni kuchaytirish, ayniqsa, ohangdorlikni yuzaga keltirish uchun jarangli undoshlar ko‘proq ishlatiladi yoki jarangsiz undoshlar jarangli undoshlar bilan uyg‘unlashadi.

Faslning “**Assonans – unlilarning takrori**” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida assonans poetik nutqning bir vositasi ekanligi, unda ham alliteratsiya singari fonetik takrorning yuzaga kelishi, har ikkalasi ham bir tamoyilga tayanishi, faqat assonansda unli tovushlarning takrorlanishi va ohangdoshligi orqali yuzaga chiqsa, alliteratsiyada undosh tovushlar takrorlanishi tahlilga tortildi. Ma’lumki, til kommunikativ, konnotativ, akkumulyativ, ekspressiv vazifalarni o‘zida jamlagan murakkab sistemadir. So‘zlovchi o‘zining kommunikativ maqsadidan kelib chiqib, o‘z nutqiga tilning turli sathlaridan materiallar tanlaydi va xudda shunday yozuvchi ham poetik maqsadidan kelib chiqib, tilning turli sathlaridagi vositalardan foydalanadi. Shuning uchun ham: “Adabiyot tildan boshlanadi, rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz musiqa bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi... Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma’naviy muammolar haqidagi hukm va xulosalarini kitobxonga til orqali yetkazadi”<sup>24</sup>, – degan edi O.Sharafiddinov.

Kommunikativ, konnotativ, akkumulyativ, ekspressiv vazifalarning barchasini poetik nutq bajara olish imkoniyatiga egadir va bu vazifalarni bajarishda tilning quyi sathi birliklari, ya’ni fonetik vositalar muhim o‘rin egallaydi.

*Tengdoshini sevgan bo‘lar teng tentak,*

*To‘yda bildim, ancha ekan deng tentak.*

*O‘sha kuni sal yig‘labman men tentak...*

*Tugunchagin tugib qo‘ygan tayyor qiz,*

*Yolg‘on yig‘lab, erga borar ayyor qiz*<sup>25</sup>. (“Ayyor qiz”, 6-bet.)

Bu misolda undosh tovushlardan *t* (12 o‘rinda), *y* (9 o‘rinda), unli tovushlardan *a* (20 o‘rinda) *e* (10 o‘rinda) qo‘llanilib, o‘ziga xos musiqiylik, ohangdorlik hosil bo‘lgan. *Teng tentak, deng tentak, men tentak, tayyor qiz, ayyor qiz* qofiyalarida noaniq qofiyaning kelishi ham assonans natijasida hosil bo‘ladi.

Assonansning alliteratsiyaga nisbatan ta’sir effekti unchalik kuchli emas, shuning uchun ham alliteratsiyaga nisbatan kamroq uchraydi. Assonansga yaqin

<sup>23</sup> Mirzo Iqbol. Ko‘ngildagi gap. <https://n.ziyouz.com/> – B. 34. (murojaat sanasi: 17.08.2023.)

<sup>24</sup> Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986, 5 сентябрь.

<sup>25</sup> Mirzo Iqbol. Ko‘ngildagi gap. <https://n.ziyouz.com/> – B.6. (murojaat sanasi: 24.08.2023.)

terminlardan yana biri litogrammadir. Litogramma tugallangan badiiy asardir, unda ongli ravishda biror harf ishlatilmaydi. Litogrammani “minus belgiga ega bo‘lgan” alliteratsiya yoki assonans deb aytish mumkin, ishlatilmaydigan harf undosh ham, unli ham bo‘lishi mumkin, ammo ko‘pincha undosh tovush bo‘ladi.

Assonans asosidagi misollarni kuzatganimizda, ularda, avvalo, kommunikatsiya – tinglovchiga ma’lum axborotni yetkazish; konnotatsiya–axborot yetkazishda qo‘shimcha ma’noviy yuklarni qabul qilish; akkumulyatsiya – poetik maqsadni yuzaga chiqarish uchun fonetik vositalarni qabul qilish orqali tinglovchiga estetik ta’sir o‘tkazish, ekspressiv ta’sir kuchi orqali tinglovchi psixologiyasiga turtki berish kabi holatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Tovushlarga biror ma’no yuklash jiddiy ilmiy asosga ega bo‘lmasa-da, bunday shartlilik zahirida emotsional-ekspressiv funksiya turadi. Masalan, ijodkorning muayyan poetik maqsadiga ko‘ra va tovush tabiatidan, so‘z ifodalaydigan ma’nodan mahzunlik, g‘amginlik, umidsizlik anglashiladi.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda matnning fonetik ifodaviyligini kuchaytirish maqsadida turli usullardan foydalaniladi. Ularning ahamiyatini baholash oson emas. Chunki she’rning ifodaviyligini oshiruvchi usullar she’rning har bir misrasini boy emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshiradi. Natijada muallifning uslubi esda qolarli darajaga yetadi.

Xulosa qilib aytganda, assonans orqali:

- 1) she’rning bosh qahramoni ko‘tarinki romantik obrazga ko‘tariladi;
- 2) muallifning faqat o‘ziga xos xususiyati ochiladi;
- 3) muallifning kayfiyatini, emotsional ta’sirini namoyon qiladi;
- 4) she’rning “asab” tizimini ochib beradi.

Alliteratsiya hamda assonans bo‘yicha olimlarning fikr-mulohazalarini o‘rganish, tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, olib borilgan turli tadqiqotlarda ushbu tushunchalarga berilgan ta’riflar bir-birini inkor etmasdan, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldiradi va taqozo qiladi. Alliteratsiya va assonans to‘g‘risidagi fikrlar, turli xil manbalardan olingan misollar tahlili alliteratsiya san’ati qadimgi davr poetikasi kabi zamonaviy o‘zbek tili fonetikasi, fonopoetikasida ham muhim ahamiyat kasb etuvchi vosita sanaladi. Ushbu fonetik vositalar badiiy matn mazmunini ta’sirli, hissiyotli tarzda o‘quvchiga yetkazish, aytilmoqchi bo‘lgan fikr va mazmuni oydinlashtirish, bo‘rttirib ko‘rsatish, misralarning ohangdorligi hamda musiqiyligini oshirishga xizmat qiladi.

Bobning ikkinchi fasli “**Fonetik taqlidlarning poetik imkoniyatlari**” ikki bo‘limga ajratilib, Uning birinchi “**Onomatopeya – tovushlar taqlidi**” bo‘limida taqlidiy tovushlar orqali poetik imkoniyatlarni orttirish ko‘rib o‘tildi. Onomatopeya – biror-bir tovushga fonetik jihatdan taqlid qilish. Termin qadimgi yunon tilidagi *onoma*, *atos* – ism va *poieo* – yaratmoq so‘zidan yasalgan. Onomatopeyaga tovushga taqlid so‘zlar (onomatoplar) bilan birga ulardan yasalgan boshqa so‘z turkumiga oid so‘zlar ham kiradi. Masalan:

№	Onomatoplar	Ot so‘z turkumi	Fe‘l so‘z turkumi
---	-------------	-----------------	-------------------

1	Kukku	kukkucham	kukulamoq
2	Uv-uuv	-	uvullamoq
3	Ma-maa	-	ma'ramoq
4	Vov-vov	vovvovcha	vovullamoq
5	Miyov-miyov	miyovcha	-
6	Chi-chi	chichicha	-

Poetik nutqda she'r yoki nasrdagi tovush hodisalariga badiiy taqlid qilish usuli ham onomatopeya sifatida talqin etiladi<sup>26</sup>. Ba'zi manbalarda momaqaldiroq, shamol, suv kabi tabiat hodisalariga; mashina, asbob-uskuna, qurol-aslaha singari jonsiz narsalardan, hayvonlardan chiqadigan ovozlarga hamda inson tovushlariga taqlidan yasalgan tovush yoki tovushlar yig'indisiga onomatopeya deyilishi ta'kidlangan<sup>27</sup>. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, onomatopeya nutqda eng ko'p uchraydigan hodisalardan biri hisoblanadi<sup>28</sup>. "Bu kabi so'zlar atash vazifasini bajarmasa-da, leksik ma'no anglatadi. Shu bois, ularni yaxlit so'z deyish mumkin"<sup>29</sup>. Ular nutqda voqelikni obrazli ifodalash maqsadida yuzaga kelgan o'ziga xos tarixiy hodisadir. Ularning ma'nosi serqirra<sup>30</sup>.

Tovushga taqlid tabiatdagi tovushlarga (suv, shamol, momaqaldiroq), jonsiz narsalarning ovozlarga (mashina, uskuna, arra), hayvon va odamlarning ovozlarga taqlid qilinadi. Ko'rinadiki, bunday tovushga taqlid so'zlar ikki turga bo'linadi:

- 1) bevosita tovushga taqlid (tabiatdagi tovushlarga taqlid);
  - 2) bilvosita tovushga taqlid (ma'lum obrazni yaratish maqsadida).
- Ma'lum tildagi onomatoplar so'zlarga o'xshab yana ikkiga bo'linadi:
- 1) adabiy tildagi onomatoplar (vovillamoq, shildirab);
  - 2) sheva onomatoplari (akillamoq, chuldirab).

Adabiy tildagi onomatoplar ham, shevadagi onomatoplar ham intensivlikni bildiruvchi formantlar bilan uyg'unlashadi. Chunki onomatoplar asosiy xususiyatlaridan biri bu intensivlikni ifodalashdir. Bu intensivlik semantik jihatdan ham (ma'lum semalar miqdoriga qarab), derivativ jihatdan ham (ma'lum formantlar orqali) ifodalanishi mumkin. Masalan, *qiyqiriq, xurraq, xushtak, baqir-chaqir*. Onomatoplarga affikslarning qo'shilishi leksikalizatsiyaga olib keladi. Onomatoplarda leksikalizatsiya hodisasi va shevalardagi onomatoplar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular alohida talqiqot obyektidir.

Faslning navbatdagi bo'limida "**Onomatopeya turlari va ularning ahamiyati**" ilmiy tadqiq qilindi. Badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda bilvosita tovushga taqlid onomatoplar katta ahamiyatga ega. Chunki olam manzarasini juda ko'p tovushlar to'ldiradi, shu sababdan tovushlar taqlidi,

<sup>26</sup> Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 215.

<sup>27</sup> Linguisticus.com.ru (murojaat sanasi: 10.09.2023.)

<sup>28</sup> Тихонов А.Н Междометия и звукоподражания слова // Русская речь. – М.: Наука, 1981. – С. 72-76

<sup>29</sup> Тихонов А.Н Ко'rsatilgan manba. – Б.72-76.

<sup>30</sup> Фатюхин В.В. Особенности перевода звукоподражаний и междометных глаголов: на материале русского и английского языков: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2000. – С. 12.

onomatoplar olam manzarasini to‘liq yoritishga xizmat qiladi. Yozuvchi va shoirlar ma’lum obrazni yaratish maqsadida, faqat ularning o‘zlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni ochishda, ma’lum vaziyatdagi inson holatini tasvirlashda turli tovushlarga taqlid so‘zlaridan foydalanishadi.

O‘zbek tilidagi onomatoplar tematik jihatdan besh turga bo‘linadi:

№	Tematik guruh	Leksemalar
1	Lingvofonatsiya	Ming‘irlamoq, g‘o‘ng‘illamoq, sayramoq, do‘ng‘illamoq
2	Zoofonatsiya	Ari, qo‘ng‘iz, g‘ag‘alamoq, turna
3	Antropofonatsiya	Yo‘talmoq, hoholamoq, hihilamoq, xirillamoq, shap-shap, qars-qurs
4	Naturafonatsiya	Shildir-shildir, guvullamoq, momoqaldir
5	Texnofonatsiya	Viz-viz, g‘ir-g‘ir, jizillamoq (qizigan temir)

Iqbol Mirzoning she‘riyatida onomatopeyalarning lingvofonatsiya, zoofonatsiya, antropofonatsiya va naturafonatsiya turlari mavjud. Texnofonatsiyaga misollar uchramaydi. Bu esa Iqbol Mirzoning insonlarga hamda tabiat va hayvonlarga xos bo‘lgan tovushlarga taqlidlardan foydalanganligini ko‘rsatadi.

**Lingvofonatsiya.** Iqbol Mirzo she‘rlarida onomatopeyaning lingvofonatsiya turiga oid, ya’ni faqat inson nutqiga xos bo‘lgan tovushlarga taqlid so‘zlar uchraydi. Masalan, ijodkor “Ismsiz she‘r”ida qorong‘u tunning tasvirini o‘quvchining tasavvurida jonlantirishda jonzotlarning tovushini poetik nutqqa olib kiradi.

*Chigirtka chirillab alla aytadi,*

*Tulki ingalashni o‘rgatar*

*Mallarang bolasiga*<sup>31</sup>. (“Ismsiz she‘r”, 26-bet.)

